

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

## **ALISHER NAVOIYNING LUTFIYGA TAXMISI XUSUSIDA**

**Gulchehra Boltayeva**

*NavDPI o’zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya:** O’zbek adabiyotida taxmisnavislik an’anasining rivoji Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq. Ulug‘ shoir bu adabiy hodisa rivoji va takomilida ham badiiy jihatdan mukammal asarlari bilan shuhrat qozongan. Maqolada Alisher Navoiy Lutfiy g‘azaliga bog‘lagan taxmising g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** taxmis, vazn, qofiya, poetik mazmun, poetik mahorat, lirik qahramon, botiniy olam.

**Аннотация:** Развитие традиции умозрения в узбекской литературе связано с творчеством Алишера Навои. Великий поэт приобрел известность своими художественно совершенными произведениями в период развития и совершенствования этого литературного явления. В статье рассматриваются идеально-художественные особенности тахмиса, которые Алишер Навои прикрепил к газели Лютфия.

**Ключевые слова:** тахмис, вес, рифма, поэтическое содержание, поэтическое мастерство, лирический герой, внутренний мир.

**Abstract:** The development of the tradition of speculation in Uzbek literature is connected with Alisher Navoi’s work. The great poet gained fame with his artistically perfect works during the development and improvement of this literary phenomenon. The article discusses the ideological and artistic features of the takhmis that Alisher Navoi attached to Lutfiy’s ghazal.

**Key words:** takhmis, weight, rhyme, poetic content, poetic skill, lyrical hero, inner world.

O’zbek adabiyotida ilk taxmislardan Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqdir. Navoiygacha taxmis san’ati o’zbek adabiyotida mavjud emas edi. Ijodkorlar juda kam hollarda o‘z g‘azallariga taxmis bog‘laydilar. Bizga ma’lumki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonidan o‘rin olgan 10 ta muxammasining barchasi taxmislardir. Ulardan 3 tasi “malik ul-kalom” Lutfiy g‘azallari, qolgan 7 tasi esa shoirning o‘z g‘azallari asosida yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu “7 taxmisdan oltitasiga asos bo‘lgan g‘azallar shoirning yoshlik va yigitlik davrlarida yaratilgan”ligi (ta’kid D.Yusupovaga tegishli) bilan xarakterlanadi. Ulug‘ shoirning o‘z g‘azallariga taxmis bog‘lash hodisasini D.Yusupova quyidagicha izohlaydi: “Ma’lumki, Alisher Navoiy so‘zga, xususan, she’rga yuksak talabchanlik bilan yondashgan. U har bir janrning qonun-qoidalarini chuqur bilgani holda muxammas janriga ham ijodkor g‘oyalarining ifodasi sifatida qaragan. Alisher Navoiy tanlagen g‘azalda buyuk shoirning dard-u dunyosi, albatta, aks etishi shart edi. Ehtimol, Alisher Navoiy muayyan bir ijodiy salohiyatga yetishgandan so‘ng turkiy adabiyotda mana shunday she’r namunasiga duch kelmagandir, boshqa shoirlarning baytlarida o‘z olamining aks-sadosini his etmagandir?! Bu esa badiiy didi yuksak bo‘lgan Alisher Navoiyning o‘z g‘azallariga taxmis bog‘lashiga olib kelgan bo‘lishi mumkin” [6.].

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

Alisher Navoiy ijodida uchraydigan bu adabiy hodisani adabiyotshunos olim A.Abdug‘ofurov quyidagicha izohlaydi: “O‘z g‘azallariga taxmis bog‘lash tajribasini adabiyotimiz tarixida Navoiy boshlab bergan. Keyinchalik, umuman, she’riyatimizda muxammasning g‘azaldan keyin yetakchi o‘ringa ko‘tarilishida ulug‘ shoirning bu ijodiy faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynagan” [2. 27-33].

Taxmis bog‘lashni o‘ziga xos ijodiy jarayon sifatida ta’riflab, R.Majidiy shunday deydi: “Muxammas bog‘lash shoir ijodiy doirasining kengayishiga, o‘tmishdagi ilg‘or shoirlar ijodi bilan qiziqishning oshishiga, ular qoldirgan ijodiy traditsiyani egallahsga va ularning ilg‘or fikrlarini xalqqa yetkazishga xizmat qilgan” [5.89].

Alisher Navoiy muxammaslarining ayrimlarida majoziy va haqiqiy ishq bir-birini inkor etmaydi, balki uyg‘unlikda kelib, biri ikkinchisini taqozo qiladi, to‘ldiradi. Navoiy ham hayotiy muhabbat “ishqi majoziy”ni kuylaydi va buni “ishqi haqiqat” yo‘lidagi muayyan bir bosqich sifatida talqin etadi. Shoir bu xildagi muxammaslarida yor tasvirini berar ekan, ma’shuqaning ma’naviy barkamol bo‘lishini, uning tashqi go‘zalligi botiniy olami bilan uyg‘un bo‘lishini istaydi. Uning lirik qahramoni oshiq ham qator insoniy fazilatlar sohibi sifatida komil insonni ham o‘zida mujassam etgan. Bu bilan Alisher Navoiy ishqqa komillik baxsh etishga intiladi.

Taniqli adabiyotshunos Yoqubjon Is’hoqov ta’kidlaganidek, “Taxmis qilish shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir. Avvalo, u yoki bu shoirning muayyan g‘azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi, estetik nuqtayi nazari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli – har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro‘yobga chiqarish vositasi bo‘lishi mumkin” [3.127].

Ijodkorlar taxmis yozish asosida o‘z mahoratlarini namoyon etishar ekan, Alisher Navoiy faqatgina Lutfiy g‘azallariga taxmis bog‘laydi. Buning sababi, birinchidan, Mavlono Lutfiy turkiy adabiyotda muktab yarata olgan ulug‘ shoir edi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy Lutfiyni yuksak iste’dod sohibi sifatida tan olar edi. Buni shoirning “Majolis un-nafois” asarida Lutfiyni forsiy va turkiyda o‘xhashi yo‘q so‘z san’atkori ekanligi haqidagi fikrlari ham dalillaydi.

Alisher Navoiy taxmislari orasida Lutfiyning “Ko‘ktadur har dam fig‘onim ko‘rgali sen mohni. Da’vii mehringga tonuq tortadurmen ohni” [4.301] matlasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘lagan taxmisi alohida o‘rin tutadi. 7 banddan iborat Lutfiy g‘azaliga shoir 5 bandli taxmis yozgan. Taxmisda vazn va qofiyani saqlagan holda, shakl va mazmunga putur etkazmay, ba’zan g‘azalning ayrim baytlari tushirib qoldirilishi ham mumkin. Alisher Navoiy yaratgan taxmisda shunday holatga duch

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

kelamiz. Lutfiy g‘azali ishqiy mavzuda bo‘lib, matla’da shoir yorni oyga qiyoslaydi. Uni bir ko‘rish, vasliga yetishish umidida fig‘oni ko‘kda – falakda ekanligini tasvirlaydi. Oshiqning tortayotgan ohi shu qadar o‘tli-ki, u ma’shuqa yuzining quyoshiga ham toniqli, belgilidir. Navoiy taxmisining dastlabki bandi quyidagicha:

*Masnadi husn uzra tokim ko ‘rmisham ul shohni,  
Tiyra aylabmen fig ‘ondin nilgun xirgohni,  
Ey sabo, arz ayla nogah ko ‘rsang ul dilxohni,  
Ko ‘ktadur har dam fig ‘onim ko ‘rgali sen mohni.  
Da ‘vii mehringga tonuq tortadurmen ohni [1.473].*

Bandda qo‘llangan so‘zlar Navoiy asarlari lug‘atida quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: “**masnad**” – suyanchiq, taxt, yuksak o‘rin, masnadi nusn-go‘zallik darjasи (369); “**tiyra**” – qorong‘u, qora, g‘am-g‘ussali (608); “**nilgun xirgoh**” –ko‘k rangli chodir (655); “**dilxoh**” – ko‘ngil istagan, ko‘ngil toptar, yoqimli (193); “**tonuq**” – guvoh, shohid, belgi, nishona (613). Lutfiy tasvirlagan go‘zalni Alisher Navoiy husn taxtining shohi sifatida ta’riflaydi. Husnda tengi yo‘q ma’shuqani ko‘rgan oshiqning fig‘oni ko‘k rangli chodirni, ya’ni kulbasini qora rangga – g‘am-g‘ussa, dardga chulg‘adi. Oshiq saboga: “Nogoh ul diltortar, yoqimli, men istagan yorni ko‘rsang ahvolimdan xabar ber”, – deya murojaat qiladi. Masnadi husn, shoh, dilxoh kabi sifatlashlar Lutfiy yorga nisbatan qo‘llagan moh – oy sifatlashini bo‘rttirib, g‘azal mazmunini mantiqan rivojlantirgan. Ikkala asar ham aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilun; - v - - / - v - - / - v - - / - v -) vaznida yaratilgan. Taxmis aaaaa, bbbba, vvvva tarzida qofiyalangan. Bandda “shoh-xirgoh-dilxoh-moh-oh” so‘zleri qofiyadoshlikni tashkil qilgan.

Keyingi baytda Lutfiy tazod san’atidan foydalanib, ma’shuqani shoh, o‘zini esa gado rutbasida ko‘radi. Husnda tengi yo‘q sultonni sevishga haddi yo‘q edi, ammo ishq daraja, martaba tanlamaydi, uning oldida gado-yu shoh tengdir, degan fikrni ilgari suradi. Alisher Navoiy esa bu fikrni yuqorida boshlab kelib, Lutfiy baytiga shu qadar mahorat bilan ulaydi-ki, go‘yo band bir shoirning ijod mahsuli sifatida tasavvur uyg‘otadi. Oshiq hech qachon ma’shuqa darajasiga yetolmaydi. Hatto ma’shuqa markabi – ulovining g‘ubori quyosh ko‘zgusiga sayqal bo‘ladi. “Men shunday shohni sevishga mayl qilganman, aslida bunga haqqim yo‘q edi. Ammo ishq meni shu ahvolga soldi”, – deya ta’kidlaydi. Tazod san’ati asosida gado-podshoh, gado-sulton, gado-shoh birikmalar taxmisda ilgari surilgan mazmunni yaqqol ifodalashga xizmat qilgan.

*Ey, g ‘ubori markabing kun ko ‘zgusining sayqali,  
Nechakim men bir gado, sen podshohdursen bale,*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Yo ‘q ajab sen husn shohin mayl qilsam sevgali,  
Sen kebi sultonni sevmak haddim ermastur, vale  
Bu balolig‘ ishq farq etmas gadovu shohni [1.473].*

Alisher Navoiy taxmisining uchinchi bandi Lutfiy g‘azalining to‘rtinchi bayti asosida shakllangan. Bayt o‘rni almashgan. Lutfiy g‘azalining uchinchi bayti zulf xususida. G‘azalning to‘rtinchi baytida xol tasviri beriladi. Bizningcha, Navoiy avval xol tasvirini, keyin esa zulf tasvirini yaratib, taxmisda o‘ziga xoslikka erishgan. Lutfiy g‘azalida qo‘llangan “ey gul” undalmasini Alisher Navoiy taxmisning har misrasida “ey xalq ahsani, ey ko‘z ravshani, ey jon gulshani, ey gul xirmani” tarzida rivojlantirgan-ki, bu juda go‘zal tasvirni hosil qilgan. Misralarda musiqiylikni, ohangdorlikni ta’milagan. Ma’shuqada barcha go‘zalliklar jam bo‘lgan. Uning sabzai xatti – labi ustidagi mayin tukchalari va sunbul zulfi xayolida, bir dona xoli tamoshosi umidida oshiqning yuzi shu qadar sarg‘aydiki, bu sariqlik koh-osmonni tutdi. Osmonda quyosh nurlari oltinrang, sariq. Osmondagi nurlar g‘amdan sarg‘aygan oshiq yuzidan rang olgan go‘yo. Mubolag‘a, tashbeh, tanosib san’atlari asosida taxmis misralarida g‘oyaviy-badiiy mushtaraklik, umumiylazmun, estetik ideal birligi yuzaga chiqqan. Bandda “ahsan-ravshan-gulshan-xirman” so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan:

*Xirmani vasling to ‘la senda, ey xalq ahsani,  
Sabzai xatting tomoshosinda, ey ko ‘z ravshani,  
Sunbuli zulfung xayolotida, ey jon gulshani,  
Donai xoling tamannosinda, ey gul xirmani,  
Rahm qilkim, chehrai zardim yoshurdi kohni [1.473].*

Keyingi bandda Lutfiy ma’shuqanining yuzi-yu zulfi firoqida shuncha oyi yillarni hasratda o‘tkazganligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy taxmis bandlarida bu mazmunni kuchaytiradi. Yorning zulfi-yu yuzini ko‘rgan oshiqning ko‘ngli hasrat o‘tida yonadi. Yor vasli umidida jonne taslim qilish oshiq uchun mukofotdir. Ammo ma’shuqa baribir oshig‘iga vafo qilmaydi. Unga bir bora vasl hadya etmaydi. Shundan oshiq yor hasratida o‘tgan, zoye ketgan umriga achinadi:

*Zulf-u yuzung ko ‘rdi-yu kuydi ko ‘ngul hasrat bila,  
Vasling ummidig‘a jon qildi fido rag‘bat bila,  
Senda yo ‘q ermish vafo-yu men kuyub mehnat bila,  
Zulfung-u yuzung firoqinda tuman hasrat bila,  
Hayfkim zoe’ kechurdum munque solu mohni [1.473].*

Lutfiy g‘azalidagi keyingi ikki baytga taxmis bog‘lanmagan, tushirib qoldirilgan:

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Og’zingizning fitkrini mundoqki ko ‘rdum oxiri,  
Boshlag ‘usidur adam sori meni gumrohni.  
Eshikingdur baxt-u davlat, xoki poying afsarim,  
Topmadi Jamshid-u Afridun bu qadr-u johni [4.301].*

Bizningcha, tushirib qoldirilgan yuqoridagi ikki bayt Alisher Navoiy talabiga mazmun va badiiy saviya jihatidan ma’qul bo’lmagan. Keyingi tushirilgan bandda eshik bilan bog‘liq tasvir bor. Bandda qo’llangan “afsar” – toj, “joh” – mansab, martaba, yuqori o’rin ma’nolarini anglatadi. Lutfiy ma’shuqaning eshigini baxt-u davlat, xoki poyini boshiga toj deb biladi. Maqta bandda ham eshik so‘zi mavjudligi tufayli, ulug‘ shoir takrordan qochgan, bizningcha, va eshik tasviri bilan bog‘liq bayt tushirib qoldirilgan.

Taxmisning maqta bandida Alisher Navoiy yana ma’shuqa madhini davom ettiradi. Yorning husn iqlimida yagona podshoh, o’zining esa benavo oshiqligini ta’kidlaydi:

*Eyki, yo ‘qtur husn iqlimida sendek podsho,  
Oshiqingning necha tutqaysen munungdek benavo,  
Nechakim bo ‘ldi eshikingda Navoiydek gado,  
Qavma Lutfini eshiktin, ber zakoti husn ango,  
Qayda etsun sen g‘ani borinda shay lillohni [1.473].*

Ko‘rinadiki, muxammas Lutfiy g‘azaliga hamohang bir mavzuda, bir xil vaznda yaratilgan. Bunga qaramasdan mazkur muxammas o‘ziga xos yangi ijod mahsuli sanaladi. Unda ulug‘ shoir Alisher Navoiyning ijodkorlik mahorati, tafakkur tarzi, dunyoqarashi, falsafiy mushohadalari, poetik tili va betakror badiiy tasvir vositalari o‘z ifodasini topgan, an’anaviylik saqlangan. O‘z navbatida mavzuga yangicha yondashuv, yangicha tasvir tizimi yuzaga chiqqan. G‘azal va muxammasning g‘oyaviy-badiiy ifoda planida o‘xhashlik ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, estetik idealning surati va siyratini yoritish, tasvirlash prinsiplari bilan farqlanib turadi. Shu sababli, har bir ijodkor yaratgan asardagi mazmun, fikr, g‘oya, tasvir tamoyillarida taraqqiyot belgilari kuzatiladi. Lutfiy g‘azali asosida Alisher Navoiy yaratgan taxmis-muxammas malikul-kalomga ehtirom, izdoshlikning namunasidir. Bu asar Alisher Navoiyning taxmis yaratish bobidagi mahsuli sifatida adabiyotimiz xazinasida o‘ziga xos o‘ringa ega.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989.
2. Абдулофуров А. Алишер Навоий мусамматлари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1. – Б. 27-33.

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б.127.
4. Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи Содир Эркинов. – Тошкент: Faafur Gulom номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2012.
5. Мажидий Р. Оғаҳий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1963.
6. Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.html>. 21.08.19.